



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI  
QO‘MITASINING  
BUYRUG‘I**

2023 yil. “1” 08

№ 38

**Toshkent shahri**

**“O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi  
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining  
Sanitariya-epidemiologiya hay‘ati faoliyatini tashkil etish haqida”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida sog‘liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 20-iyundagi PQ-197-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) Sanitariya-epidemiologiya hay‘ati faoliyatini tashkil etish maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublika Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida sog‘liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 20-iyundagi PQ-197-son qarori bilan Qo‘mitaning tashkiliy tuzilmasi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Qo‘mitaning Sanitariya-epidemiologiya hay‘ati (keyingi o‘rinlarda – Hay‘at) to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Hay‘at tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Hay‘at kotibi (N.Tashbayev):

Hay‘at yig‘ilishlari bayonnomalar asosida rasmiylashtirish, tegishliligi bo‘yicha ijrochilarga yetkazish va ijrosini nazorat qilishni Hay‘atning nizomi asosida olib borilishini;

**joriy yilning 10-dekabriga qadar** Sog'liqni saqlash vazirligining Hay'at yig'ilishlari va Sanitariya-epidemiologiya hay'atida kelgusi yilda muhokama qilinadigan masalalar bo'yicha Hay'at a'zolari va mas'ul mutaxassislar ishtirokida takliflar tayyorlanishini ta'minlasin.

4. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya kengashining 2020-yil 29-dekabrdagi 4/1-sonli yig'ilish bayoni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

**Rais**



**B. Yusupaliyev**